

## MILLIY QADRIYATLAR-MA'NAVIYATNING KO'ZGUSI.

Muqimova Visola

Namangan davlat chet tillar instituti

Til va tarjima fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1410142>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jamiyatimizdagi har bir mustaqil shaxsni ma'naviy-marifiy jihatdan kamol toptirishda, o'zini, o'zligini anglab yetishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lган milliyligimiz, umumbashariy qadriyatlarimizning bugungi kundagi holati, ushbu masala borasidagi ayrim muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan turli fikr mulohazalar atroflicha bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** miliy qadriyatlar, o'zlikni anglash, an'analar tahlili, o'tmish va kelajak, yosh avlod.

## NATIONAL VALUES - THE MIRROR OF SPIRITUALITY.

**Abstract.** In this article, the present state of our nationality and universal values, which are of incomparable importance in the spiritual and intellectual development of every independent person in our society, and in realizing their identity, some problems related to this issue and various ways to overcome them opinions are described in detail.

**Key words:** national values, self-awareness, analysis of traditions, past and future, young generation.

## НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ – ЗЕРКАЛО ДУХОВНОСТИ.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается современное состояние нашей народности, общечеловеческие ценности, которые имеют ни с чем не сравнимое значение в духовном и интеллектуальном развитии каждого независимого человека в нашем обществе, в реализации себя и своей идентичности, некоторые проблемы, связанные с этим вопросом и их устранение различных мнений подробно описано.

**Ключевые слова:** национальные ценности, самосознание, анализ традиций, прошлое и будущее, молодое поколение.

## KIRISH.

Dunyoda har bir xalqning, millatning o'zi uchun qadrli, qimmatli ma'naviy boyliklari bo'ladi, albatta. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, sayqallanib yanada rivoj topib boradi. Mana shunday oltinga teng boyliklarimizdan biri bu-milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urfatlarimizdir.

Qadriyat-insonlarning hayoti, axloqi, ijtimoiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lgn umumiyl tushuncha. Qadriyatlar asosan individual yoki jamiyatlar aro bo'lishi mumkin. Jumladan, olimlar qadriyatlarni milliy, diniy, mahalliy, mintaqaviy va umuminsoniy kabi bir qator guruhlarga ajratadi.

Aniqroq qilib aytildigan bo'lsa, qadriyatlar yer yuzidagi istalgan bir xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko'rsatib turuvchi, ajdod hamda avlodlarning qon qoniga singib ketguvchi muhum omillardan biridir.

Biroq bugungi texnologiyalar asri bo'lmish XXI asrda ham aynan o'ziga xos urf-odat va o'tmishdagi meroslarni to so'nggi nafasgacha asrab qolishga, ularni yanada rivojlantirishga harakat qilayotgan millat, bevosita, boshqa bir millatlardan hech bir shubhasiz mana shu o'ziga xoslik bilan umrboqiy ajralib turadi. Qiziq, hali hamon jahonda o'zliginini saqlab qolishga harakat qilayotgan xalqlar topilarmikan? Yoxud barcha ommaviy ma'daniyat, texnologiy zamonaning "yutuqlariga" ko'r-ko'rona ergashib ketayotganmikan?

#### TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI.

Biz bilamizki, xalqlarning bebafo urf-odatlari shunchaki bir-ikki yoki o'n besh-yigirma yil ichida paydo bo'lib qolgan emas. Achinarlisi, ularning unutilishi uchun gohida soniyalarning o'zi kamlik qilmoqda. Nega axir anglab yetmaymiz? Shu zalvorli davr mobaynida ularning shakilanishiga qanchadan qancha buyuk insonlar qoni baxshida bo'lган? E'tibor qaratsak jamiyatimizning qalbiga chuqur o'rnashgan biron-bir muhum urf-odat, kundalik hayotimizdagi istalgan "buyum"ning an'anagaga ayniqsa qadriyatga aylanishiga millionlar yillar talab qilmaydimi? Mana shunda ham yuqoridagi o'sha tushuncha, tajriba odat bashariyatning chig'irig'idan muvaffaqiyatli o'tsagina aniq bir qadriyat sifatida xalq hayotiga tadbiq qilinadi.

Ha, siz-u, biz barmoq orasida mensimasdan qaraydigan to'y-tomoshalardagi merosiy odatlardan tortib, milliy kiyimlarimiz, qadimiylarimiz o'yinlarimiz-u taomlarimiz yuqoridagi kabi ming bir sinovlardan o'ta-o'ta astoyidil oftobda toblanar ekan. Shu sababli kunlar, oylar asrlar hatto yillar o'tgani sayin an'analar insoniyatni hamjihatlikka, ezgulikka, mehr-oqibatga chorlaydigan zabardast ilohiy bir kuchga aylanib boradi. Bunday qadriytlar xalqlarning yashash tarzida, yurish turishida, ong-u shuurida, madaniyat va manaviyatida o'z ifodasini topadi.

Tarixdan bizga ma'lumki, o'zbek xalqi boy o'tmishi, buyuk allomalari o'ziga xos va mos urf-odat, an'analarini bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi. Ona Vatanga muhabbat, ota-on, qarindosh-urug'larga hurmat, e'tobor, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, qo'shnilariga saxovatpesha bo'lisch, yetim-yesirlarning, muhtojlarning boshini silash, ortirilgan mol-dunyodan xayr-ehson qilish, mehmonga, o'zidan kattalarga ehtiromda bo'lisch, ajdodlar omonatini asrab-avaylash, har qanday sharoitda ham ibo-hayoni saqlay bilish, jufti halolini, diyorini himoya qilish kabi so'z bilan sanab adog'iga yeta olmaydigan bu qadriyatlar bizga ota meros ona merosdir. Biroq guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, bugungi kunda ham yuqorida sanab o'tilgan an'analarimizni shunchaki, eskilik sarqiti yoxud feodalizmning qoldiqlari deb hisoblab, yevropaning xo'rozqandini afzal bilib o'zi, xalqi, ajdodlari tugul vijdonini sotayotgan qo'shtirnoq ichdagisi insonlar tobora jamiyatimizda ko'payib bormoqda. Gapning qisqasi yaxshi qisqasidan hissasi yaxshi, maqoliga tayangan holda bu masaladagi muammolarni birma-bir tahlil qilinsa maqsadga muvaffaq bo'ladi.

#### TADQIQOT NATIJASI

Avvalambor qadriyatlar obro'silanishi deganda barchamizning ko'z o'ngimizga birinchi bo'lib to'y-marosim, bayramlarimiz keladi. Haqiqatdan, qani o'sha Payg'ambarimiz namuna qilib ketgan behasham, oddiygina, fayz-u barokatli to'ylarimiz? Tonnalab mahsulotlarimiz isrof bo'lishi yetmganidek, to'y qilaman deb bechora bir oila yeti avlodidan qarzdor bo'ladi, qarz ilmagan taqdirda ham yillar davomida misqollab yig'gan pulini bir kunlik shodiyona uchun havoga sovuradi.

Axir shu pullar ilm dargohlariga berilsa, hayrli yo'llarda ishlatilsa bo'ladi-ku.

Bular mayli to'y-tomoshalardagi odam og'zi bilan aytishga uyaladigan bachkana o'yinkulgu, gul uloqtirish, tort yedirish holatlariga bizning o'zbek o'ziga bek elimiz qanday jimgina ko'z yumyapti ekan-a? Biroz bo'lsa-da quvonarlisi, mas'ul tashkilotlar bu borada chekllov, jarimalar o'rnatib tushuntirish va tashviqot ishlarini olib bormoqda.

Boshqa tomondan meni ko'pdan buyon qiynayotgn bir savol shuki-yoshlarimizning (jumladano'zim)kiyinish, so'zlashish, tarbiya borasida aynan bobo-buvilarimizning tajribalariga emas, yot ellatlarning ko'rsatmalariga ergashib ketishidir. Masalan, yigit degani yoshligidan ot choptirib, kurash tushib, yer chopmaydimi? Qizlarimiz Kumush, Ra'no singari Alisher, Sa'diyning-u, Olloyorning kitoblarini dastur-ul amal qilib, bir oilani, bir dalani ishini kecha-yu kunduz tinchitmaydimi? Ilmda dinda mukammal bo'lib Buxoriy, Temur, Bobur kabi farzandalarni tarbiyalab, hatto ona allasi orqali bola kelajagini nurafshon bo'lishga chorlamaydimi? Eh, essiz yigitlarning raqqos, bloger, stilist bo'lishi, ayollarimizning ustida yal-yal yonadigan qimmatbaho liboslar, bilan o'zlarini ko'z ko'z qilishi, qayerlardadir pul ilijida erkak ovlashi oilasi, yurtdoshlari obro'-e'tiborini bir chaqaga ilmay ularning nomusini oyoq osti qilishi qaysi qadriyatga xos?!

Ayrimlar esa jirkanch qilmishlari sababli ona bo'lishdek ulug' va muqaddas baxtdan mosuvo bo'lib, nigohsiz orttirgan jigargo'shasini ko'chga tashlab ketib, chaqalog'ini bo'g'ib o'ldirib, uni suvga otib begunoh mitti farishtalarining umrlariga zavol bo'lmoqda. Ayt, ey ayol, hatto hayvon zotida ham o'z dilbandini tashlab, o'ldirib ketish xislatarini yo'q-ku? Qani bizning o'zi och-nahor urush qiyinchilik davralari bo'lsada 15 farzandni asrab olib, ularga borini va barini baxshida qilgan Bahri Akramova onamiz izdoshlari, qani haloli urushda qon kechib, jon bergen taqdirda ham uning ismini diliga abad o'yib nomusini, ibo-hayosini jan jahdi bilan asrab dunyodan toq o'tgan buvijonlarimiz davomchisi? Ayt, ey o'zbek ayoli qani bizning milliyligimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz?!

Masalaning eng og'riqli nuqtasi-yosh avlodning bolalikning sof va beg'ubor davrlarini faqatgina turli gadgetlar o'ynash, televizor ko'rish bilan o'tkazishidir. O'ylashga arzигulik masala-farzandlarning ko'r-ko'rona ommaviy madaniyatga ergashib, zamonaviylik, qulaylikka intila-intila o'zligini, tarixini, kimning avlodi-yu, oltinga teng qadriyatlarini unutib yuborgan inson qiyofasidagi ongsiz, hissiz, robotga aylanishi. Tasavvur qiling, bir inson operatsiya jarayonida yotibdi, jarroh Google, YouTubeda hozirgina ko'rayotgan ma'lumot va o'rgatishlar orqali bemorni muolaja qilsa qanday bo'ladi? Kamina oddiygina saviyamga tayanib aytamanki, yevropa xalqlari hali o'zları ham mag'zini chaqib, tushunib yetmagan istalgan sohadagi buyum bo'ladimi, qadriyat nimaki bo'lsa barchasini, dastavval, sharq diyorlarida tajriba quyonchasi sifatida, aynan bizda, sinab ko'rishmoqda. Vaholangki, mazkur ellatlar ham aslida amalga tadbiq etib, ommalashtirayotgan madaniyat narsalarining tub mohiyatini to'laligicha anglab yetgani yo'q.

"Olimlar aytganidek" Qaysidir bir xalqni bo'ysundirmoqchi bo'lsang, avvalo, u xalqning ma'naviyati, an'analarini yo'q, keyin u xalq senga o'z-o'zidan taslim bo'ladi. "Qiziq, sobiq sho'ro davrida millatimizga nisbatan ko'plab tazyiq, cheklovlar bo'lgan. Shunday qaltis zamonlarda ne-ne avliyo, olim, jadid va ziyoli insonlar bizga o'zbeklikning asl mohiyatidan tortib, ma'naviy moddiy meroslarigacha barini bezavol yetkazib berdilar. Bugungi o'zbeklar esa shunday tinch va faqovon kunlarda ham yot ellatlarning kiyinishi, so'zlashishi, bayram, urf-odat va hatto yashash tarzlariga taqlid qilmoqda.

Bizning ham ko'krak kerib maqtanishga arzigelik: "Kurash", "Chillak", "Qirq tosh" singari milliy o'yinlarimiz; osh somsa, manti kabi taomrimiz; cho'pon do'ppi milliy kiyimlarimiz bor-ku. Qani endi yevropa xalqlari ham yuqoridagilarni bizdan o'rgansa, bizga ergashsa, milliyligimiz yanada taraqqiy etsa.

### MUHOKAMA

Milliyligimiz, qadriyatlarimizni yanada rivojlantirishga, ularning tobora yo'qolib ketishiga chek qo'yish uchun quyida bir nechta tafsiyalar beriladi. Shunisi aniq-ki, davlat kelajagi har tomondan yosh avlodga bog'liq bevosita mana shu yosh avlod go'yoki nihol misoli bu nihol agarda noto'g'ri o'sib, bir tomonga og'ayotgan bo'lsa, uni dehqon unga tirkak qo'yib, xavf-xatarlardan asramasa anniq bu nihol ulkan daraxtga aylangach uni hatto bolta bilan ham to'g'irlashning imkoniy yo'q. Aytmoqchimanki, barcha ommaviy madaniyatga ergashayotgan bir paytda farzandlarni to bololigidan umumbashariy an'analar, Vatanga muhabbat, o'ziga, ajdodlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash barcha muammolarning birdan bir yechimidir.

Birinchidan, farzandlarimizni milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, avvalo, ona qornidan boshlanadi, ya'ni bu davr mobaynida har bir ona o'zida yaxshi xislatlarni shakillantirishi, halol luqma yeyishi, ilmga, dinga yanada oshno bo'lishi lozim. Axir bejizga "Ona bu -madrasa"-deb aytilmaydi. Bolaga aslida to yeti yoshgacha saxiylik, rostgo'ylik, muruvvatpeshalik, kattalarga hurmat, oilaning muqaddas tushuncha ekanligi kabilar singdirilishi lozim.

Ikkinchidan, murg'ak qalbli bolajonlarimizni maktabgacha ta'lif muassasalarida o'qitish davomida ularga milliy harakatli o'yinlar, tarbiyaviy ertaklar, milliy kuy-ko'shiqlarimiz o'rgatilishi kerak. Chunonchi, ularga zamonaviy o'yinchoqlar berib, befoya multfilmlar ko'rsatish o'rniiga yuqoridagi usul yurt bunyodkorlari uchun ancha foydaliroq.

Uchinchidan, O'zbekistondagi jamiyki maktablarida alohida o'zbekligimizni, o'zligimizni, qisqacha tariximizni, ko'pincha kimlarning davomchilarini ekanligimizni aks ettiruvchi, saviyali bir darslik joriy qilinish lozim. To'g'ri, bizda Milliy g'oya, Tarbiya kabi o'quv qo'llanmalari mavjud, ammo rostini aysam o'zim ham mакtab davrida bulardan jo'yaliq m'lumot ololmaganman. Ularda Konstitutsiyamiz moddalari, allaqancha yillar, turli tuman erishilga yutuqlar, balanparvoz gaplar qayd etilgan.

### XULOSA

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadriyatlarimiz tobora qadrsizlanishi -haqiqatdan, do'ppini boshdan yechib o'ylashga, bu masal yuzasidagi kamchiliklarga barham berishga arzigelik masala.

Chunki Ch.Aytmatov aytganidek "Ajdodlarini, millatining udum va odatlarini bilmagan insonning hech bir shubhasiz manqurtdan farqi yo'qdir" Unutmaylikki, ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

### REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqmiz bilan birga quramiz. To'shkwnt O'zbekiston 2017
2. Abdurauf Fitrat. Oila yokki boshqarish tartiblari - T.: Cho'lpon, 2013. - bet 6. (Abdurauf Fitrat. Family or management procedures - T.: Cholpon, 2013. page 6)

3. А.С.Ачилдиев. Диалектика национального самосознания и национальной культуры - Т.: 1997. - стр. 49. (A.S.Achildiyev. Dialectic national identity and national culture - T.: 1997. - page 49.)
4. D.A. Yusubov. Falsafa (etika, estetika, mantiq) - Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. - bet 154. (D.A. Yusubov. Philosophy (ethics, aesthetics, logic) - T.: Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan, 2017. -page 154.)
5. D.A. Yusubov, X.B. Saitxodjayev, A.A. Mavlyanov. Falsafa. - Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012. - bet 240. (D.A. Yusubov, X.B. Saitxodjayev, A.A. Mavlyanov. Philosophy - T.: Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan, 2012. - page 240)
6. Falsafa: Qomusiy lug'at - Т.: Sharq, 2004. - bet 476. (Philosophy: Encyclopedic dictionary - T.: East, 2004. - page 476.)
7. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati - Т.: Akademiya, 2007. - betlar 184, 220, 222. (National ideology: advocacy technologies and glossary of terms - T.: Academy, 2007. - pages 184, 220, 222)
8. Nazarov Qiyomiddin. G'oyalar falsafasi - Т.: Akademiya, 2011. - betlar 95, 110-112. (Nazarov Qiyomiddin. Philosophy of ideas - T.: Academy, 2011. - pages 95, 110-112)